Axborot muhitida noto'g'ri ma'lumotlarni tan olish ko'nikmasini shakllantirish metodikasi.....	572
<i>Baliyev Azimjon Narmuminovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni qo'llashning samaradorligi	575
<i>Choriyeva Barno Alisher qizi</i>	
Inklyuziv ta'limni samarasini oshirish uchun xalqaro tajribadan foydalanish	578
<i>Ergasheva Mohinur Dilmurod qizi</i>	
Talabalarda huquqiy ongni rivojlantirishda interfaol metodlarning roli	583
<i>Ganiyev Elyorbek Ulug'bekovich</i>	
Boshlang'ich ta'lim mavzularini mustahkamlashda qo'llaniladigan usul hamda didaktik o'yinlar texnologiyasi	587
<i>Kamolova Muhabbat</i>	
O'zbekistonda agro erkin iqtisodiy zonalarining rivojlanishi geografik xususiyatlari va unga global iqlim o'zgarishining ta'siri	590
<i>Nazarov Didar Maxsat o'g'li</i>	



Improving the Theoretical and Methodological Foundations for Integrating Generative Artificial Intelligence Technologies Into English Language Teaching in Higher Education	594
Nigmatova Nozimakhon Ulugbek kizi	
Bo'lajak ofitserlar xulq-atvorida agressivlik namoyon bo'lishining psixologik nyuanslari	597
Rejametova Iroda Ikramshaykovna	
Sport tashkilotlarida murabbiylar va sportchilar bilan ishlash jarayonini zamonaviy kadrlar boshqaruvi yondashuvlari asosida tizimlashtirish va motivatsiya hamda natijadorlikni oshirish omillarini ilmiy asoslash.....	601
Saparov Xasan Djumanazarovich	
Kichik maktab yoshli bolalarda emotsional intellektni shakllantirishning psixologik xususiyatlari	606
Abduhalilova Saidaxon Mavlonbek qizi, Qodirova Odina Djurabayevna	
Tarixiy yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati	610
Abduraxmonov Alibahrom Abdusalomovich	
Developing Students' Speaking Skills in English Language Lessons	613
Alamuratov Elyor Umarali ugli	
Jahon psixologiyasida hayotga nisbatan bardoshlilikni ilmiy tadqiq etilishi	617
Alimov O'limasjon Ismatovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish	621
Axmedova Nasibaxon Kobiljonovna	
Aholiga sifatli psixologik xizmat ko'rsatishda ilmiy asoslangan psixoterapiyalarning o'rni	624
Bilolova Zamira Baxtiyarovna	
Qadimgi Naxshabning diniy me'morchiligi: Yerqo'rg'on ibodatxonasi misolida	629
Eshmurodova Marjon Eshmurod qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv rivojlanishni ta'minlovchi o'yin muhitining imkoniyatlari	633
Fozilova Odina Nabiyeвна	
Oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy shakllanishini psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash xususiyatlari	636
I. I. Xalilov	
Modern Teaching Methods Based on Educational Technologies	640
Kirgizov Ismat	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda mustaqil ishlar tizimi	644
Madraimova Halima G'ayrat qizi	
Ingliz tili darslarida madaniyatlararo kommunikatsiya va axborot almashish kompetensiyalarini rivojlantirishda interaktiv usullar.....	648
Olimxon Isaqov Odiljanovich	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini rivojlantirish zamonaviy texnologiyalari	652
Rustamjonov Shoxruxbek Akmaljon o'g'li	
Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini maktabga tayyorlashda fiziologik rivojlanish va biologik atamalarning qo'llanilish xususiyatlari.....	656
Ruziyeva Gulsara Temirqulovna	
STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'limida qo'llash bo'yicha xorijiy tajribalar	662
Saidova Nigora Olimovna, Pirmatova Zaynabxon Elmurod qizi	
Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalar orqali bolalarda mantiqiy va ijodiy rivojlanishni kengaytirish	665
N. O. Saidova, Tojaliyeva Shahrizoda	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat faoliyatini jismoniy vositalari orqali optimallashtirish masalalari	669
Sarimsaqova Bashorat Muhammad qizi	
Talabalarni axborot ta'lim muhitida kasbiy kompetentligini boshqarishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	673
Shoimov Anvar Mamarizayevich, Tojiyeva Iroda Sadatovna, Shodiyeva Guliston Temirovna	

Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda pedagogik metod va o'yinlarning samaradorligi	677
Suyarova Orzigul Sodiq qizi	
Ta'lim jarayonida talabalardagi stress holatlarini bartaraf etishning psixologik xususiyatlari.....	681
Toshpulatov Akmal A'zamjon o'g'li, Dumarov Mashhurbek	
Maktabgacha ta'lim faoliyat markazlarida ta'lim jarayonini davlat dasturi asosida modernizatsiya qilish ...	685
Ubaydullayeva Ra'no Furqat qizi	
The Role of STEAM Technologies in Teaching English.....	689
Umida Raimjanovna Irgasheva	
Talabalar mobilligi jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.....	693
Xabibullayev Alimardon Xidoyatillayevich	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari o'rtasida metodik kollaboratsiyani boshqarish mexanizmini takomillashtirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar majmuasi va unda qo'llaniladigan metodlar	698
Xamrayeva Gulnoz Israilovna	
Migratsiya sharoitida yoshlar tarbiyasi: pedagogik risklar va ularning kelib chiqish sabablari	704
Xaydarov Sulaymon Amirqulovich	
Отношение к телу и фитнес-практикам как фактор социально-психологического благополучия женщин	708
Дехконбоева Зулайхо Дилшод қизи	
Masofaviy o'qitish kompetensiyasi uchun shart-sharoitlarning samaradorligini tekshirish bo'yicha eksperimental ish.....	712
Musamedova Kamola Abdulxaqovna, Xalikov Abdulxaq Abdulxairovich	
Masofaviy ta'limning oxirgi besh yil davridagi rivojlanish bosqichlarining tahlili.....	719
Musamedova Kamola Abdulxaqovna, Ibragimova Ozoda Abdulxakovna	
Информированность педагогов ДОО о психофизиологических особенностях и здоровье детей в инклюзивном образовательной среде	723
Намазбаева Лола Закировна	



BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING HARAKAT FAOLIYATINI JISMONIY VOSITALARI ORQALI OPTIMALLASHTIRISH MASALALARI

Sarimsaqova Bashorat Muhammad qizi

Guliston davlat pedagogika instituti

Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat faoliyatini jismoniy vositalar orqali optimallashtirish masalalarini yoritadi. Tadqiqotda jismoniy faoliyatning bolalar rivojlanishidagi ahamiyati, mos sport jihozlari, interaktiv o'yinlar va maxsus trening dasturlarining ta'siri tahlil qilinadi. Ota-onalar va o'qituvchilarning ishtiroki, shuningdek, jismoniy faoliyatni rag'batlantirish usullari muhokama etiladi. Olingan natijalar bolalarning jismoniy rivojlanishini yaxshilash va sog'lom turmush tarzini shakllantirishda samarali strategiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, jismoniy tarbiya, harakatli o'yin, harakat, o'yin, sport, mashg'ulot, optimallashtirish, o'quvchi, o'qituvchi.

Abstract: This article examines the issues of optimizing the motor activity of primary school students through physical means. The study analyzes the importance of physical activity in children's development, as well as the impact of appropriate sports equipment, interactive games, and special training programs. The participation of parents and teachers, along with methods of stimulating physical activity, is discussed. The results obtained will help develop effective strategies for improving children's physical development and promoting a healthy lifestyle.

Key words: primary school, physical education, active play, movement, game, sport, training, optimization, student, teacher.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы оптимизации двигательной активности учащихся начальной школы с использованием физических средств. В исследовании анализируется значимость физической активности в развитии детей, влияние соответствующего спортивного инвентаря, интерактивных игр и специальных тренировочных программ. Обсуждаются участие родителей и учителей, а также методы стимулирования физической активности. Полученные результаты способствуют разработке эффективных стратегий улучшения физического развития детей и формирования здорового образа жизни.

Ключевые слова: начальная школа, физическое воспитание, активные игры, движение, игра, спорт, тренировка, оптимизация, ученик, учитель.

KIRISH

Inson o'zini jismonan tarbiyalashi uchun jismoniy tarbiya va sportning zarurligini anglab yetishi hamda qunt bilan o'ziga yoqqan muayyan jismoniy mashg'ulotlar tizimi asosida salomatligini shakllantirishi zarur. Yosh avlodning jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish tarbiyaning ajralmas qismi bo'lgan jismoniy tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiyaning maqsadi jamiyatning sog'lom, xushchaqchaq, har tomonlama jismoniy rivojlangan, mehnat va Vatan himoyasiga tayyor bo'lgan avlodni tarbiyalashdan iborat bo'lgan uzoq muddatli, uyushtirilgan pedagogik jarayondir. Jismoniy tarbiya oldida turgan vazifalarni hal etishda xalq milliy harakatli o'yinlarini to'plash va ularni hayotga tatbiq etish, ulardan oqilona foydalanish zarurligi bugungi kunda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Jismoniy tayyorgarlik bolaning sog'lom rivojlanishi uchun zarur bo'lgan harakat ko'nikmalarini hamda jismoniy sifatlarni (kuch, chaqqonlik, chidamlilik, muvozanat, egiluvchanlik) rivojlantirish jarayonidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son1 "O'zbekiston Respublikasida jismoniy

tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni hamda ushbu sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda jismoniy tayyorgarlik muhim ahamiyat kasb etadi. Jismoniy tayyorgarlik aynan 7-10 yoshdan boshlab shakllana boshlaydi, egiluvchanlik sifati esa 5-6 yoshdan rivojlana boshlaydi.

Ushbu davrda bolalarning jismoniy tayyorgarligiga alohida e'tibor qaratish zarur. Aynan shu davrda bolalar boshlang'ich sinflarda ta'lim oladi, ya'ni 1-4-sinf o'quvchilari hisoblanadi. 1-4-sinflarda jismoniy tarbiya darslari olib borilib, ushbu darslarda 1-sinflarda shashka, harakatli o'yinlar hamda gimnastika mashqlari, 2-3-4-sinflarda esa o'rtacha murakkablikdagi gimnastika mashqlari (akrobatik mashqlar, snaryadlarda bajariladigan mashqlar, badiiy gimnastika buyumlari bilan bajariladigan mashqlar) amalga oshiriladi. Harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish bolalar va o'smirlarning jismoniy salomatligi, harakat koordinatsiyasi, chaqqonlik, kuch, chidamlilik va epchillik kabi jismoniy ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jismoniy tarbiya jamiyatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini o'tkazish jarayonida mustahkam salomatlik, mustahkam iroda, yuksak samaradorlik va faollikni shakllantirish shaxsning intellektual rivojlanishi hamda jismoniy kamol topishiga asos bo'ladi. Jismoniy tarbiya ta'lim jarayoni bo'lib, ta'lim tizimining muhim elementidir. Ta'lim tizimida jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi o'quvchi shaxsini yuqori aqliy, jismoniy va ijtimoiy faollikka ega bo'lgan, har tomonlama uyg'un hamda barkamol rivojlangan inson sifatida shakllantirishdan iboratdir.

Jismoniy sifatlarni tarbiyalash bo'yicha faol va maqsadli darslar barcha tana tizimlarining rivojlanish jarayonini tezlashtiradi hamda sifat jihatidan o'zgartiradi. Asosiy jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi bilan belgilanadigan yaxshi jismoniy tayyorgarlik barcha turdagi o'quv, mehnat, amaliy va sport faoliyatida mehnat qobiliyatining asosi hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchisining jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun harakatli o'yinlarga asoslangan darslar va mashqlarni to'g'ri tashkil etish hamda o'tkazish eng muhim masalalardan biridir. K. Balsevich tadqiqotlariga ko'ra, bolalarning jismoniy faolligi quyidagicha tavsiflanadi: 1-4 sinf bolalarida jismoniy sifatlarni ko'rsatkichlarining barchasi yuqori sur'atlarda o'sib borayotganligini namoyon etadi. Faqat egiluvchanlik ko'rsatkichining rivojlanish tempi ushbu davrda nisbatan pasayadi. Bu yoshdagi bolalarda biodynamik harakatlarning, ayniqsa, koordinatsion tarkibiy qismlarning jadal rivojlanishi kuzatiladi^[3].

1-4 sinflar oralig'ida jismoniy sifatlarni va koordinatsion qobiliyatlarning, shuningdek, inson harakat faolligining namoyon bo'lishi uchun amaliy jihatdan juda qulay zamin yaratiladi.

F. N. Nasriddinov [4] va A. Sh. Qosimovlar^[5] tadqiqotlari natijalariga ko'ra, jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari yosh ortishi bilan barcha mezonlar bo'yicha ma'lum darajada oshib boradi.

A. N. Livitskiy^[7] ilmiy tadqiqotlarida qayd etilishicha, qo'l panjalari mushaklarining kuchi 7 yoshda 13-14 kg ga yetadi. Shu yoshdan boshlab harakatli o'yinlar vositasida mazkur sifatlarni yanada rivojlantirish imkoniyatlari yuqori bo'ladi.

Yoshga oid o'zgarishlar dinamikasida ayrim keskin bosqichlar ajralib turadi bo'lib, ular morfologik va funksional xususiyatlar majmui bilan tavsiflanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining sog'lomlashtirish-tarbiyaviy ishlarini harakatli o'yinlar orqali yanada faollashtirish uchun ularning jismoniy rivojlanish darajasi va tayyorgarlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash zarur. Bu esa samarali vositalarni tanlash hamda keyinchalik pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazish imkonini beradi.

Maktab o'quvchisining shaxs, komil inson sifatida shakllanishi va rivojlanishida jismoniy tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. Xalq jismoniy tarbiyasi insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlaridayoq bola va o'smirlarning shakllanishida asosiy vositalardan biri bo'lib kelgan. Shu bois, bugungi milliy o'zlikni anglash jarayonida xalqning milliy qadriyatlariga asoslangan jismoniy tarbiya tizimiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi darajasini oshirish va salomatligini mustahkamlashga qaratilgan jismoniy tarbiya darslarini optimallashtirish jarayonini o'rganish doimo dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelgan.

Ilmiy-metodik adabiyotlarda harakat qobiliyatlarini rivojlantirish va ularning darajasini nazorat qilish muammosi jismoniy tarbiya tizimidagi markaziy masalalardan biri ekanligi ta'kidlanadi (I. Pashkov, I. Korotkov, V. Yakovlev, S. Mudrik, V. Ratnikov, I. Vasilkov, I. Kozetov va boshqalar).

Ilmiy-metodik adabiyotlar hamda tadqiqot ishlarining (Y. M. Abdullaev, D. I. Turdimurodov) tahlili o'yinlar soni, takrorlashlar miqdori, dam olish intervallari va ularning o'zaro ta'sirining jismoniy sifatlarni rivojlantirish dinamikasiga ta'sirini aniqlash imkonini berdi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat qobiliyatlari masalasi qo'shimcha ilmiy asoslashni talab etadi. Ushbu muammoni hal etish nafaqat o'quvchilarning jismoniy tarbiya jarayonini takomillashtirishga, balki ularning harakat faoliyatini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Bularning barchasi tanlangan mavzuni ishlab chiqishning dolzarbligi va maqsadga muvofiqligini asoslab beradi^[6].



TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'yinlarining ruhi, tabiati, xarakteri, ishtirokchilarning xatti-harakatlari kabi jihatlariga ham e'tibor berish zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilari jismoniy tarbiyasini qiziqarli va foydali o'tkazish uchun biz tavsiya etayotgan ayrim milliy o'yinlardan foydalanishda ham xuddi shu xususiyatlarga alohida e'tibor qaratish lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy tarbiya darslarida qadriyatlarga muhabbat uyg'otish, xalq an'analarini avaylab-asrashga o'rgatish ko'p jihatdan xalq milliy harakatli o'yinlaridan unumli foydalana bilishga bog'liq bo'ladi. Sababi, milliy harakatli o'yinlar orqali bola bir tomondan jismoniy bilimlarni egallasa, ikkinchi tomondan esa jismoniy tarbiyaga, shu orqali milliy qadriyatlarga qiziqishi ortadi. Harakatli o'yinlar – bu tana harakatlariga asoslangan, ko'pincha ochiq havoda yoki sport zallarida o'ynaladigan o'yinlar bo'lib, ular nafaqat jismoniy faollikni oshiradi, balki ijtimoiy ko'nikmalarni ham rivojlantiradi ^[6] (1-jadvalga qarang).

Harakatli o'yinlar bolalarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, ushbu o'yinlar bolalarning salomatligini mustahkamlashda, ularni sport turlariga qiziqitirishda, jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda, zo'riqishlarning oldini olishda hamda sog'lom turmush tarziga o'rgatishda muhim vosita hisoblanadi. Harakatli o'yinlar juda keng va ko'p qirrali bo'lib, ular nafaqat bolalar, balki o'smirlar va kattalar salomatligi uchun ham foydalidir. Gimnastika mashqlari jismoniy sifatlarni rivojlantirish bilan birga inson tanasining barcha funksional imkoniyatlarini takomillashtiradi, salomatligini mustahkamlaydi, qomatni to'g'ri shakllantiradi, harakat muvozanatini oshiradi hamda estetik did va ichki intizomni shakllantiradi. 1–4-sinf o'quvchilari yoshiga mos o'yinlarni jismoniy sifatlarni rivojlantirishiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: bolalarda tezkorlik va egiluvchanlikni tarbiyalovchi o'yinlar; bolalarda kuch sifatlarini rivojlantiruvchi o'yinlar; bolalarda chidamlilik va chaqqonlikni rivojlantiruvchi o'yinlar ^[4].

Ayrim o'yin turlari bolalarning barcha bo'g'inlariga mos kelib, jismoniy sifatlarni yaxlit holda tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi. Bunday o'yinlar jarayonida turli jismoniy sifatlarni ketma-ket va uzviy ravishda rivojlanadi. Milliy harakatli o'yinlardan foydalanish jarayonida boshlang'ich maktab o'quvchilarining quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarur: boshlang'ich sinf o'quvchisida kattalar faoliyati, ularning predmetlarga munosabati va o'zaro muloqotiga qiziqishning ortishi; xalq harakatli o'yinlarida atrofda voqelikning eng ifodali va jo'shqin hissiy jihatlarining aks etishi; harakatli o'yinlarda boshlang'ich sinf o'quvchisining kattalar bilan bir xil sharoitda yashayotganini his etgan holda o'z istaklarini amaliyotda namoyon qila olishi ^[6].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat faoliyatini jismoniy vositalar orqali optimallashtirishda quyidagi omillar muhim hisoblanadi: mos sport jihozlarini tanlash, o'quvchilarning yoshi va jismoniy tayyorgarligiga mos interaktiv o'yinlardan foydalanish, maxsus trening dasturlarini ishlab chiqish hamda ota-onalar va o'qituvchilarning faol ishtirokini ta'minlash.

Yosh avlodning jismoniy jihatdan sog'lom, baquvvat, Vatan himoyasiga tayyor bo'lib voyaga yetishidan ham xalq, ham jamiyat manfaatdordir. Buning uchun o'quvchilar jismoniy tarbiya bilan muntazam va mazmunli shug'ullanishlari, milliy harakatli o'yinlardan samarali foydalanish ko'nikmalarini egallashlari zarur. Bu jarayon yosh avlodni o'z xalqi, mustaqil davlati va jamiyat oldidagi burchini his etish ruhida tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lib, maktabga qadam qo'ygan ilk kundanoq mehnatsevarlik, ishchanlik, boshlagan ishini oxiriga yetkazish va sabotlilik kabi fazilatlarni shakllantirish imkonini yaratadi. Jismoniy tarbiyaning zamonaviy vositalari bilan bir qatorda o'zbek xalqining milliy harakatli o'yinlari ham bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ushbu o'yinlar bolalarni ruhiy, jismoniy va ma'naviy jihatdan har tomonlama tarbiyalaydi. Zero, millat kelajagi bo'lgan yoshlarni sog'lom, yetuk va barkamol insonlar etib tarbiyalash mustaqil yurtimiz kelajagi barqaror bo'lishining muhim omilidir. Harakatli o'yinlar va milliy sport turlari tarixiy taraqqiyot jarayonida muayyan o'zgarishlarga uchragan bo'lib, har bir iqtisodiy va ijtimoiy tuzum ularning mazmuni hamda qoidalarida o'ziga xos iz qoldirgan. Ba'zi o'yinlarning nomi va qoidalari hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Bunday o'yinlardan foydalanishda ularning nafaqat jismoniy, balki tarbiyaviy ta'sirini ham hisobga olib, ijodiy yondashuv asosida qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy tayyorgarlik ularning sog'lom, faol, chaqqon va har tomonlama rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Bu davr bolaning harakat ko'nikmalari shakllanadigan, jismoniy salohiyati jadal rivojlanadigan eng muhim bosqich hisoblanadi. Jismoniy faollik bolalarda sog'liqni mustahkamlaydi, yurak-qon tomir, nafas olish, mushak va suyak tizimining rivojlanishiga xizmat qiladi, chaqqonlik, kuch, epchillik va muvozanat kabi sifatlarni shakllantiradi, shuningdek, darslarga bo'lgan diqqatni oshiradi va aqliy faoliyatni rag'batlantiradi ^[2]. Bundan tashqari, jismoniy tayyorgarlik orqali bolalar tartib-intizom, jamoada ishlash va qoidalariga rioya qilish kabi ijtimoiy ko'nikmalarni ham egallaydi. Harakatli o'yinlar va gimnastika mashqlari o'quvchilarning ruhiy-emotsional holatini yaxshilaydi, o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Shu sababli boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini mazmunli, qiziqarli va tizimli tashkil etish sog'lom avlodni voyaga yetkazish bilan bir qatorda barkamol shaxs tarbiyasining muhim poydevori hisoblanadi.



Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat faoliyatini jismoniy vositalar orqali optimallashtirish ularning umumiy rivojlanishi va sog'lom turmush tarzini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, zamonaviy usul va vositalardan foydalanish bolalarning qiziqishini oshirishda samarali hisoblanadi.

XULOSA

Ma'lumki, bolalar jismoniy tarbiyasi, jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligini uslubiy hamda pedagogik nuqtai nazardan to'g'ri aniqlash uchun bolalar fiziologiyasi va ruhiyatini yaxshi bilish zarur. Ana shu bilimlarga tayangan holda har bir mashg'ulot oldidan aniq vazifalar belgilanishi lozim. Vazifalar soni odatda ikki-uchta bo'lib, ular bir necha guruhlariga ajratilgan holda amalga oshiriladi, asosiy harakatlar va mashqlar hamda milliy harakatli o'yinlar tanlanadi. Tanlangan mashqlar:

- *birinchidan*, asosiy harakatlar bilan uzviy bog'liq bo'lishi lozim.
- *ikkinchidan*, mashqlar o'quvchilarning yoshiga, tayyorgarlik darajasiga va jinsiga mos bo'lishi talab etiladi.

Bundan tashqari, ushbu mashqlar bolalar uchun oddiy, tushunarli, tanish va ular tomonidan bajarilishi mumkin bo'lishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat faoliyatini optimallashtirishda jismoniy tarbiya vositalarini to'g'ri tanlash va samarali qo'llash muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar, o'qituvchilar va pedagogik mutaxassislarning hamkorlikda faoliyat olib borishi bolalarning jismoniy rivojlanishini yaxshilash hamda sog'lom turmush tarzini shakllantirishga sezilarli hissa qo'shadi. Kelgusida ushbu sohada olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar bolalarning jismoniy faolligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar sharhi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish hamda ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-4711327>
2. Abdullaeva M. Bolalar o'yinlarida o'zaro munosabatlar // Boshlang'ich ta'lim. – Toshkent, 2000-yil.
3. Ishmuxamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari o'qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste'dod, 2010-yil. – 140 bet.
4. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: Nihol nashriyoti, 2013-yil. – 278 bet.
5. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2004-yil. – 102 bet.
6. Jumaev M.E., Yuldasheva M.Yu., Mingbaeva B.U., Mamatova G.A. Boshlang'ich ta'limni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar: metodik-uslubiy qo'llanma. – T., 2017-yil.
7. Salomova R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. – T., 2014-yil.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.